

**AMIR TEMUR SHAXSIYATI VA TEMURIYLAR DAVLATCHILIGI:
TARIXIY MANBALAR, SIYOSIY-HUQUQIY TIZIM VA BOSHQARUV
TAMOYILLARI**

**Nizomiy nomidagi O`zbekiston Milliy pedagogika universiteti
dotsenti Xayitova Feruza Buxarovna**

**Nizomiy nomidagi O`zbekiston Milliy pedagogika universiteti
Tarix fakulteti Tarix yo`nalishi 2 – bosqich talabasi
G`ulomova Zahro Davlatjon qizi**

@zahrogulomova40gmail.com

(+998947463353)

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Temuriylar davlatining asoschisi, buyuk sarkarda, davlat arbobi, Markaziy Osiyo, Yevropa, balki, butun dunyo tarixida o`chmas iz qoldirgan Amir Temur hayotiy faoliyati, hokimyatga kelishi, davlat boshqaruv usullari haqida batafsil bayon etiladi. Uning Temuriylar davlatchiligida tutgan o`rni, qo`shgan hissasi haqida ma`lumotlar qayd etiladi. Shu bilan birga maqolada Temuriylar davlati tarixiga oid manbalar, ularning tarix fanidagi o`rni haqida bayon etilib, manbalardagi temuriylar davlati siyosiy-huquqiy tizimi va boshqaruv tamoyillari tahlil qilinadi.

Kalit so`zlar: Amir Temur, Amir Tarag`ay, Takina Xotun, Ibn Xaldun, Sharafiddin Ali Yazdiy, Boyazid Yildirm, To`xtamishxon, Ovro`pa, Mirzo Ulug`bek, Temuriylar davlati.

АННОТАЦИЯ: В данной статье подробно описывается жизнь Амира Тимура, основателя Тимуридского государства, великого полководца, государственного деятеля, оставившего неизгладимый след в истории Центральной Азии, Европы и, возможно, всего мира, рассказывается о его жизни, восхождении к власти и методах государственного управления. Приведена информация о его месте и вкладе в Тимуридское государство. Одновременно описываются источники по истории Тимуридского государства, их место в исторической науке, а также анализируется политико-правовая система и принципы управления Тимуридским государством на основе этих источников.

Ключевые слова: Амир Тимур, Амир Тарагай, Такина Хотун, Ибн Халдун, Шарафиддин Али Язди, Бояид Йылдырым, Тохтамыш-хан, Европа, Мирзо Улугбек, Тимуридское государство.

ANNOTATION: This article describes in detail the life of Amir Temur, the founder of the Timurid state, a great commander, statesman, who left an indelible mark on the history of Central Asia, Europe, and perhaps the whole world, about his life, his rise to power, and his methods of state governance. Information about his place and contribution to the Timurid state is recorded. At the same time, the article describes the sources on the history of the Timurid state, their place in historical science, and analyzes the political and legal system and principles of governance of the Timurid state in the sources.

Keywords: Amir Temur, Amir Taragay, Takina Khotun, Ibn Khaldun, Sharafiddin Ali Yazdi, Boyayid Yildirim, Tokhtamysh Khan, Europe, Mirzo Ulugbek, Timurid state.

Amir Temur – buyuk shaxs, kuragi yerga tegmagan sarkarda, yirik davlat arbobi, qonunshunos, talantli me`mor, notiq, ruxshunos, shu bilan birga el-yurtini, xalqini sevgan va uni mashxuri jahon qilgan xalqimiz farzandi. Amir Temur 1336 – yilning 9-aprel sanasida Qashqadaryo viloyati Shaxrisabzning Xo`ja Ilg`or qishlog`ida tavallud topgan. Uning to`liq ismi Amir Temur Ibn Amir Tarag`ay Ibn Amir Barqul. Otasi Amir Tarag`ay barlos urug`ining oqsoqollaridan bo`lib, ajdodlari Kesh va Nasaf viloyatlarida o`z mulklariga ega bo`lgan va bu yurtda hokimlik qilgan. Onasi Takina xotun esa Kesh yurtining obro`li bekalaridan hisoblangan. Amir Temur ko`proq yoshlik yillarini Keshda o`tqazadi. Otasi Amir Tarag`ay o`g`lini yoshligidan aslzodalarga xos o`qitgan va har taraflama bilim bergan. Jumladan: katta-kichik bilan muomala ilmini, ov qilish va harbiy ilmlarni o`rgatgan. Yosh Temurni 7 yoshga to`lganida madrasaga beradilar, u bu paytda alifbodan mukammal xabardor bo`lgan. 12 yoshga to`lganida bolalarga xos bo`lgan ermak o`yinlardan voz kechib, sipohiylikka oid o`yinlar bilan shug`ullangan. Amir Temur yoshlik yillaridan chavandozlik va ovga ishqiboz bo`lgan, hatto u tulporlarni saralab ajrata oladigan qobilyatga ega shaxs bo`lib voyaga yetgan. Ammo uning yoshligi va yigitlik yillari mamlakat og`ir ijtimoiy-siyosiy buxron iskanjasiga tushib qolgan davrga to`g`ri keldi. U o`zining ilk harbiy faoliyatini qo`l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan. Janglarda qatnashib, jasorat ko`rsatgan. Harbiy mahorat va oliyhimmatlik Amir Temur



shuhratini oshirib, uning dong`i butun Qashqadaryo vohasi, xususan, Kesh viloyatiga yoyilgan.

Amir Temur haqida Parij universitetining Turkiy tadqiqotlar instituti direktori Lui Bazen o`zining “Amir Temur saltanati” asarida shunday deb yozadi: “1370-yildan 1405-yilgacha bo`lgan davrda zukko bir jahongir, Eron, Iroq va Turkistonni zabt etdi, Suriya, Xindiston va O`rusiyani bo`ysundirdi, Turkiyani mag`lubiyatga uchratdi, Damashq, Bog`dod va Dehlida zafar quchdi, zamonasining eng mohir jangchilari bo`lmish mo`g`ullar, mamluklar va yanicharlarni maxv qildi”¹. Amir Temur Yevropada (qadimda Ovro`pa deb ham atalgan) “Tamerlan” (forscha Temurlan ya`ni Oqsoq temur) nomi bilan 35 yil davomida Osiyoni tiz cho`ktirdi va tarixan qisqa muddat umr ko`rgan tarixiy saltanat barpo etdi, uning poytaxti bo`lgan Samarqandni me`moriy obidalar bilan bezatdi.

Amir Temur Yevrosiyo taxtiga davogar sifatida maydonga chiqqanida 34 bahorni qarshilagan edi. O`n yil davom etgan kichik kurashlardan so`ng kichik bir Movaunnahr hududini qo`lgan kiritgan. U bu paytda na shahzoda na bir xoqonning merosxo`ri edi. Oddiy bir urug` boshlig`i bo`lganligi sababli, o`lka taxtiga g`animlarni yengib o`tirdi. U hokimiyatga kelganidan so`ng Samarqand viloyatining shimoliy va sharqiy qismida ko`chmanchilik bilan shug`ullanuvchi turk-mo`g`ul qabilalariga qarshi kurashib, uni yengdi. G`arbda sulolar o`rtasida talash bo`layotgan Eron va Iroqni, ulardan narida joylashgan Suriya va Misrni o`ziga bo`ysundirdi. Janub tomonda esa Xuroson ortida joylashgan Hindistonni egalladi. Amir Temur o`zining kuchli harbiy qo`shini bilan ko`p hududlarni egallay oldi, ammo, Xitoyga qo`li yetmadi. Bunga ajal xalaqit berdi. Amir Temur o`zining harbiy yurishlari orqali, hatto, bir necha xalqlarga ozodlik ham bera oldi. O`sha davrning eng qudratli hukmdori sanalgan Boyazid Yildirimni tor-mor keltirib, Bolqon yarimoroli va Yevropa xalqlariga ozodlik bag`ishladi. Aynan shu jangda Amir Temur oyog`idan yaralangan va bir umrga cho`loq bo`lib qolgan.”G`arbliklarning Temurlan nomi bilan atashlariga sabab ham, mashhur “Loy jangida”gi yaralanishi va cho`loq bo`lib qolishi². Shu bilan birga Oltin O`rda xoni To`xtamishni ikki marta tor-mor keltirib, Rossiyani mo`g`ullar hukmronligidan qutulishini tezlashtirdi.

Amir Temurning tariximiz oldidagi xizmati benihoya katta. U nafaqat kuchli saltanat tuzdi, balki o`z davrida madaniyat, adabiyot, san`at va hunarmandchilikni ham

¹ Lui Bazen Amir Temur saltanati. T: “Ma`naviyat”-1999y. 6-20 betlar.

² Xalimov.A Buyuk Sohibqiron Amir Temur haqida, Samarqand – 2012. 3-10betlar.



rivojlantirdi. U haqida Sharofiddin Aliy Yazdiy shunday guvohlik beradi: Amir Temur “Obodonlikka yaraydigan biror qarich yerning ham zoe bo`lishini ravo ko`rmasdi”. Dunyo juda ko`p jahongirlarni ko`rdi, lekin uning boshqalardan farqi shundaki, u umr bo`yi bunyodkorlik ishlari bilan mashg`ul bo`ldi. Amir Temurning “Qay bir joydan bir g`isht olsam, o`rniga o`n g`isht quydirdim, bir daraxt kestirsam, o`rniga o`nta ko`chat ektirdim”, degan so`zlari ulug` bunyodkorlik, yaratuvchanlik faoliyatining tasdig`idir. Shu bilan birga bobomiz o`zining “Agar bizning qudratimizni bilmoqchi bo`lsangiz, qurgan binolarimizga boqing” degan fikrlarida avvalo, o`z xalqiga, kelajak avlodlariga murojaat qilgan.

O`sha davrda Amir Temur har qanday jamiyat taraqqiyotini ilm-ma`rifatsiz tasavvur qilib bo`lmasligini tushungan. Shu sababli qay bir shaharga tashrif buyurmasin, Amir Temur avvalo o`sha yerlik olim-u fozillar bilan uchrashar, ular bilan suhbat qurar, turli mavzularda baxslashar edi. Tarix, tibbiyot, matematika, astranomiya, me`morchilik sohalarida yuksak salohiyatga ega bo`lgan Amir Temur uchun bu tabiiy xol edi. Bu fazilat Sohibqironning nabirasi bo`lgan Mirzo Ulug`bekka o`tgani shubxasiz. Mirzo Ulug`bekning davlat arbobi bo`lish bilan birga, buyuk olim darajasiga yetishishida bobosining o`rni muhim. Sohibqiron Ulug`bekning noyob qobilyatini boshdan sezib, safarlarda doim o`zi bilan olib yurgan, dunyoning mashhur olimlari tarbiyasidan baxramand etgan.

Amir Temurdan qolgan buyuk adabiy meros “Temur tuzuklari” hisoblanadi. Asar podsholarning turish-turmushi va axloq-odob me`yorlarini belgilovchi risola. U ikki qismdan iborat. “ Birinchi qismda jahon tarixida mashhur fotih, sarkarda va iste`dodli davlat arbobi sifatida nom qoldirgan Amir Temurning 7 yoshi (1342)dan to vafotiga qadar (1405-yil 18-fevralga) qadar kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, aniqroq qilib aytganda, uning Movarounnahrda markaziy hokimyatni qo`lga kiritish, feodal tarqoqlikka barham berish va markazlashgan davlat tuzish, qo`shni yurt va mamlakatlarni, masalan, Eron hamda Afg`onistonni o`z tasarrufiga kiritish, Oltin O`rda hukmdori To`xtamishxon (1376-1395), butun Yevropaga qo`rquv va dahshat solgan Turkiya sultoni Boyazid Yildirm (1389-1402)ga qarshi va nihoyat, buyuk Jahongirning Ozarbayjon, Gruziya va Hindistonga qilgan harbiy yurishlari ixcham tarzda bayon etilgan³”. Ikkinchi qismda esa Amir Temur nomidan aytilgan va uning toj-taxt vorislariga atalgan o`ziga xos vasiyat va pand-nasihatlaridan iborat. Unda davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalarining tutumi va vazifalari, vazir va

³ Temur Tuzuklari. / A.Temur. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi,2018, 4-5bet.

qo`shin boshliqlarini saylash, sipohiylarning maoshi, mamlakatlarni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo`shin boshliqlarining burch va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toj-u taxt oldida ko`rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqa mavzular haqida yoziladi.

Sohibqiron Amir Temur bobomiz haqida juda ko`p buyuk insonlar o`z asarlar yaratgan. Mashhur arab tarixchisi bo`lgan Ibn Xaldun Amir Temur bilan to`rt marta suhbat qurgan. U bu suhbatlar haqida o`zining butun dunyoga mashhur bo`lgan “Muqaddima” asarida bayon etgan. Asarda bobomiz haqida shunday deb yozadi: “Amir Temurning laqablaridan biri “Sohibqiron”, ya`ni qiron (ikki sayyoraning bir chiziqqa kelishi) egasi degan ma`noda bo`lib, bu uning paydo bo`lishi haqidagi munajjimlar bashoratlariga mos keladi⁴”.

“Amir Temur adolatni nihoyatda yaxshi ko`rardi, shu sababli ham uning saltanatida birorta inson behuda ranjitilmagan, zulm ko`rmagan. U ilm-fanni ham, ilm ahlini ham hurmat qilar, eng ezgu maqsadi esa butun saltanatida ma`daniyat va san`atning gurkirab yashnashiga erishish edi. Uning oliyanobligi bisyor va bisyor xollarda namoyon bo`lmishkim, ular haqida so`ylab o`tirishning o`rni emasdir” deb yozadi, - Sharafiddin Ali Yazdiy o`zining “Zafarnoma” asarida.

“O`zining murakkabligi bilan eng zukko insonlarni ham aqldan ozdiradigan, uzoqni ko`ra biladiganlarni ko`r, donolarni nodon, davlatmandlarni xor, na balandlarni past qiladigan eng g`aroyib yoxud eng og`ir sinovlardan biri bu Mag`ribu-Mashriqni titratgan fotixlar sardori... Temurning g`aroyib sarguzashtlaridan”, Ibn Arabshoh “Temur Tuzuklari tarixi”dan.

Amir Temur tarixda buyuk sarkarda, dono davlat arbobi va kuchli siyosiy yetakchi sifatida muhim o`rin egallaydi. U nafaqat katta hududlarni birlashtirib, qudratli davlat barpo etgan, balki davlat boshqaruvi, adolat va tartibni mustahkamlashga ham alohida e`tibor bergan. Amir Temur o`zining qat`iyati, harbiy iste`dodi, uzoqni ko`ra bilishi hamda adolatli boshqaruv tamoyillari bilan xalq orasida hurmat qozongan. Shuningdek, u ilm-fan, madaniyat va bunyodkorlik ishlariga katta ahamiyat berib, Samarqandni dunyoning yirik ilmiy va madaniy markazlaridan biriga aylantirgan. Uning faoliyati natijasida ko`plab madrasalar, masjidlar va tarixiy obidalar bunyod etilgan. Demak, Amir Temur shaxsiyati nafaqat harbiy yutuqlari, balki davlatni mustahkamlash, adolatli boshqaruvni yo`lga qo`yish va ilm-madaniyatni rivojlantirishdagi xizmatlari bilan ham tarixda o`chmas iz qoldirgan. Uning hayoti va

⁴ Muqaddima / Abdurahmon Ibn Muhammad Ibn Xaldun. Toshkent, “Trust and Support” nashriyoti, -2025. 33-bet.



faoliyati bugungi avlod uchun vatanparvarlik, jasorat va qat`iyat timsoli bo`lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Lui Bazen / Amir Temur saltanati. –T: “Ma`naviyat”, -1999.
2. Sodiqov.X / Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati. “Art Flex” nashriyoti, Toshkent – 2010.
3. A.Temur / Temur Tuzuklari. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.-184b.
4. Abdurahmon ibn Muhammad Ibn Xaldun / Muqaddima. Toshkent, “Trust and Support” nashriyoti, 2025.-400b.